

SOG'LIQNI SAQLASH BYUDJET MABLAG'LARINI PROGNOZLASHTIRISH

Parpiyeva Sayyora G'ofirjonovna

Vazirlar Mahkamasi qoshidagi biznes va tadbirkorlik oliy maktabi moliya yo'nalishi magistranti, Yangi Namangan tumani 49-sonli Aloxida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar(aqli zaif) uchun maxsus ta'lim muassasasi

Annotatsiya: *sog'liqni saqlash tizimi har bir davlat uchun muhim ijtimoiy va iqtisodiy soha hisoblanadi. Sog'liqni saqlash byudjet mablag'larini samarali prognozlashtirish, resurslarni optimal taqsimlash va aholi salomatligini yaxshilashga xizmat qiladi. Ushbu annotatsiyada sog'liqni saqlash byudjeti prognozlashtirishning ahamiyati, asosiy usullari va amaliyotdagi muammolar ko'rib chiqiladi. Prognozlashtirish usullaridan biri — vaqt seriyalarini tahlil qilish, bu esa o'tgan davrlar bo'yicha ma'lumotlarni o'rganish orqali kelajakdagi xarajatlarni aniqlash imkonini beradi.*

Kalit so'zlar: *sog'liqni saqlash, prognozlashtirish, demografik tahlil, sog'liqni saqlash xizmatlari, aholi salomatligi, ekspert baholari, davlat siyosati, kompleks yondashuv, sog'liqni saqlash tizimi, epidemiologik tadqiqotlar.*

Sog'liqni saqlash tizimi – bu ma'lum bir mamlakat yoki mintaqada sog'liqni saqlashni ta'minlash va aholi salomatligini boshqarishga qaratilgan uyushgan tuzilma va jarayonlar majmuyidir. U tibbiyot muassasalari, tibbiyot xodimlari, moliyalashtirish jarayonlari, qonunchilik va me'yoriy-huquqiy bazani, boshqaruv va moliyaviy nazorat tizimini o'z ichiga oladi. Shunday ekan ushbu tizim faoliyatini o'rganish, baholash va tahlil qilish muhim va ayni paytda dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Qayd etilishicha, 2016 yilda Davlat budjeti parametrlarida sog'liqni saqlash sohasiga 6,0 trln. so'm ajratilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2020 yilda 14,8 trln. so'mni tashkil etishi rejalashtirilmoqda (2016 yilga nisbatan qariyb 2,5 baravar yoki 2019 yilga nisbatan 1,23 barobar ko'proqdir). Shuningdek, 2020 yilda dori vositalari va tibbiyot buyumlarini xarid qilishga 1 491,8 mlrd. so'm ajratish nazarda tutilgan (2016 yilga nisbatan esa 6,5 barobarga yoki 2019 yilga nisbatan qariyb 36 foizga ko'proqdir). Sog'liqni saqlash sohasiga ajratilgan mablag'larning ayrim faoliyat turlari kesimida ko'rinishi quyidagicha:

a) shoshilinch tibbiy yordam muassasalarining dori vositalari va tibbiy buyumlar xarajatlari uchun 2020 yilda 102,8 mlrd. so'm ajratilishi ko'zda tutilayotgan bo'lsa, 2016 yilda 16,3 mlrd. so'm ajratilgan;

b) sog'liqni saqlash sohasining eng og'ir nuqtalaridan biri bo'lgan onkologiya muassasalarida davolanadigan har bir bemorning bir kunlik dori vositalari va tibbiy buyumlari bilan ta'minlash xarajatlari uchun budjet mablag'lari 2016 yildagi 3 250 so'mdan 2020 yilda 66 227 so'mgacha oshirildi;

v) aholiga tez tibbiy yordam xizmati uchun har bir chaqiruvga 2016 yilda o'rtacha 482 so'mdan ajratilgan bo'lsa, 2020 yilda bunday xarajat turi uchun 6 700 so'mdan ajratilishi ko'zda tutilmoqda.

Sog'liqni saqlash byudjeti — bu davlat yoki xususiy sektor tomonidan sog'liqni saqlash tizimiga ajratilgan moliyaviy resurslar to'plamidir. U sog'liqni saqlash xizmatlarining sifatini oshirish, aholi salomatligini yaxshilash va epidemiyalarni oldini olish uchun zarurdir. Byudjet mablag'lari kasalxonalar, poliklinikalar, tibbiy uskunalar va dori-darmonlarni sotib olishga yo'naltiriladi. Prognozashtirish uchun zarur bo'lgan statistik ma'lumotlar to'planadi. Bu ma'lumotlar aholi soni, kasallik tarqalishi, tibbiy xizmatlarga talab va boshqa omillarni o'z ichiga oladi. To'plangan ma'lumotlar tahlil qilinadi. Bu bosqichda vaqt seriyalari, demografik tahlil va epidemiologik tadqiqotlar o'tkaziladi. Tahlil natijalari kelajakda sog'liqni saqlash xizmatlariga bo'lgan talabni aniqlashda yordam beradi. Olingan ma'lumotlar asosida prognoz modelari yaratiladi. Bu jarayonda matematik va statistik modellar, shuningdek, ekspert baholari qo'llaniladi. Modellar asosida kelajakdagi byudjet mablag'lari prognozlari ishlab chiqiladi. Bu prognozlar davlat siyosati va iqtisodiy sharoitlarga .Byudjet mablag'lari taqsimlangandan so'ng, ularning samaradorligi monitoring qilinadi va baholanadi. Bu jarayon kelgusi prognozlar uchun muhim ma'lumotlarni beradi. Sog'liqni saqlash byudjet mablag'larini prognozashtirishda bir qator muammolar mavjud:

- Ma'lumotlarning yetishmasligi: ko'p hollarda aniq va to'g'ri ma'lumotlarni to'plash qiyin bo'ladi, bu esa prognozlarning ishonchliligini pasaytiradi.

- O'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar: iqtisodiy inqiroz yoki pandemiyalar kabi kutilmagan vaziyatlar sog'liqni saqlash byudjetiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

- Siyosiy omillar: davlat siyosati va qaror qabul qilish jarayonlari prognozashtirish jarayoniga ta'sir qiladi. Sog'liqni saqlash byudjet mablag'larini prognozashtirish, iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlash uchun muhimdir. Bunda demografik o'zgarishlar, kasalliklar tashxisi va profilaktika xarajatlari, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimidagi innovatsiyalar hisobga olinishi kerak. Prognoz qilish jarayonida statistik ma'lumotlardan foydalanish, rag'batlantirish dasturlarini tahlil qilish va xalqaro tajribalarni o'rganish muhimdir. Zamonaviy texnologiyalar, masalan, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlili yordamida aniqroq prognozlar qilish mumkin. Maqsadli va samarali byudjet rejalashtirish, sog'liqni saqlash muassasalarining hayotiy barqarorligini ta'minlashga yordam beradi va aholi salomatligini yaxshilashga xizmat qiladi. Sog'liqni saqlash byudjet mablag'larini prognozashtirish — bu murakkab va ko'p jihatli jarayon. U samarali sog'liqni saqlash tizimini yaratish uchun zarurdir. To'g'ri prognozlar sog'liqni saqlash xizmatlarining sifatini oshirishga, aholi salomatligini yaxshilashga va kasalliklarning oldini olishga yordam beradi. Shuning uchun, sog'liqni saqlash byudjetini prognozashtirishda ilg'or metodologiyalarni qo'llash va ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA HAVOLALAR:

1. Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi, 28.12.2018

2. “Sog‘liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5199-son 28.07.2022y.
3. “Sog‘liqni saqlash vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-156 - son 06.09.2023-y.
4. Косорукова И. В., Мощенко О. В., Усанов А. Ю. “Экономический анализ”: Учебник для бакалавриата и магистратури.– Москва: Университет “Синергия”, 2021. – 360 с. 5.М.У. Raximov, N.N. Mavlanov N.N. Kalandarova; Iqtisodiy tahlil. Darslik.– Т.: “Iqtisod-Moliya”, 2022.
5. I.N.Qo‘ziyev, Sh.V. G‘aniyev, A.S. Ramazonov. Byudjet hisobi va nazorati: Darslik. – Т.: “Nihol print” ОК, 2022. 632 b.
6. <https://kun.uz/news/2020/01/22/sogliqni-saqlash-sohasini-moliyalashtirishga-budjetdan-ajratilgan-mablaglar-togrisida-malumot-berildi>
7. https://uza.uz/oz/posts/sogliqni-saqlash-tizimini-raqamlashtirishga-doir-qoshimcha-chora-tadbirlar-togrisida_478658

